

ОҚ ЙЎЛ СИЗГА, ЁШ ОФИЦЕРЛАР!

ФВВ Академиясида битирувчи курсантларга диплом ва “лейтенант” ҳарбий унвонини топшириш тадбири ўтказилди.

Унда Фавқулодда вазиятлар вазири генерал-майор Абдулла Қўлдошев, мутасадди вазирлик ва олий ҳарбий таълим муассасалари раҳбарлари, масъул ходимлари, Академия профессор-ўқитувчилари, ҳарбий хизматчилар ва курсантлар, вазирлик матбуот хизмати ходимлари, кенг жамоатчилик ҳамда оммавий ахборот воситалари вакиллари иштирок этдилар.

Тадбирда вазир генерал-майор Абдулла Қўлдошев ҳамда Академия бошлиғи генерал-майор Равшан Ҳайдаров сўзга чиқиб, ўз нутқларида Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги ва “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги қонунлари юртимизда олий маълумотли мутахассис кадрларни ҳар томонлама етук, масъулият ва бурчини чуқур ҳис қиладиган ҳамда ўз касбини севиб ардоқлайдиган, фидойи инсонлар қилиб тарбиялаш учун барча имкониятларни яратиш бераётганини алоҳида таъкидладилар.



Тантана давомида сўзга чиққан битирувчилар ва уларнинг ота-оналари, таклиф этилган меҳмонлар ўзларининг ҳис-ҳаяжонга тўла тилакларини изҳор этиб, ёш офицерларни самимий мураббат этишди.

– Бугун биз, ёш офицерларнинг қувончимиз чексиз, – дейди битирувчи лейтенант Жамшидбек Ҳақимов. – Бизни вояга етказган ота-оналаримизга, таълим-тарбия берган устозларимизга самимий миннатдорлигимизни билдираемиз. Албатта, халқимизнинг тинч-осуда ҳаётини, соғлиғини асрашдек бахтли касб бўлмаса керак, биз ана шундай қутқарувчиликдек шарафли касбни эгаллаб, етук кадрлар бўлиб етишганимиздан ва она-Ватанимиз рағбатига ўз ҳиссамизни қўшаётганлигимиздан фахрланамиз. Юртимизда яратилаётган кенг имконият ва қулай шарт-шароитларга жавобан, хизмат фаолиятимизда фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ҳамда ёнғин хавфсизлигини таъминлаш йўлида бор куч-ғайратимизни сафарбар этаемиз.

– Бугун фарзандим Фаёзбек офицерлик унвонини олиб, мустақил ҳаётга йўл олаётганидан бошим кўкка етди, – дейди подполковник Ботиржон Сотволдиев. – Ўзим ҳам шу соҳада меҳнат қилаётганлигим учун бизнинг оиламизда ҳам ушбу касбга хос бўлган муҳит шаклланди. Фаёзбек ҳам шу руҳда вояга етган. Ишонаманки, фарзандим жонажон Ватанимиз ва халқимиз хизматида бўлиб, ушбу олий даргоҳда олган назарий билим ва кўникмаларини амалиётда қўллаб, мустақил юрт осойишталигини таъминлашга бор куч ва шижоатини сафарбар этади.

Фарҳоджон ХОЖАЕВ,
ФВВ Академияси катта ўқитувчиси, майор.



ВАЗИР ВА ЁШЛАР УЧРАШУВИ

Кадрлар салоҳиятини ошириш, ёшларнинг билим ва кўникмаларини янада мустаҳкамлаш, янги ғоя ва иқтидорини қўллаб-қувватлаш айна кун талаблари билан ҳамохангдир. Фавқулодда вазиятлар вазири генерал-майор А.Қўлдошевнинг видеоконференцалоқа шаклидаги ёшлар билан учрашуви шундай эзгу мақсадларга қаратилди. Учрашувда бугунги ислохотлар жараёнида ёшларнинг алоҳида ўрни борлиги ва соҳадаги бундай ислохотларда уларнинг ғоялари, амалга ошираётган ишлари билан яқиндан танишиш муҳимлиги таъкидланди.

Шунингдек, “Бердақ” номидаги Қорақалпоқ давлат университетининг маданият саройида “Янги Ўзбекистон ёшлари, бирлашайлик!” шиори остида “Ёшлар ойлиги” доирасида ўтказилган “Қутқарувчи ёшлар” форумида ҳарбий соҳада амалга оширилаётган ислохотлар хусусида сўз юритилди. Шунингдек, аҳолини ва ҳудудларни фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш, фавқулодда вазиятларнинг олдини олишга тайёргарлик жараёнларини янада такомиллаштириш юзасидан бажарилиши зарур бўлган ишлар ҳақида ҳам маълумотлар тингланди.

– Сиз азиз ёшлар билан учрашиш мен учун катта шараф, – деди Фавқулодда вазиятлар вазири генерал-майор А.Қўлдошев. – Бизнинг асосий мақсадимиз соҳадаги ҳар бир ишимизда ёшларимиз фаоллигини кўришдир. Бунинг учун сизлардан ўз меҳнат фаолиятининг меҳр қўйиб, хизмат фаолиятини амалга ошириш талаб этилади. Илк мартаба ўтказилаётган ушбу форум “Қутқарувчи” деган шарафли касб эгаси бўлган ҳарбий хизматчи ва хизматчиларимиз орасидаги ёш

авлодни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, ўзаро ҳамжиҳатликни таъминлаш, билим ва тажриба алмашиш учун мулоқот майдонини яратишга хизмат қилиши билан аҳамиятлидир. Мамлакатимизда яратилаётган шарт-шароитлардан унумли фойдаланиб, илм-фан, маданият, спорт ҳамда соҳамиз йўналишида юқори натижаларга эришиб келаётган ўғил-қизларимизнинг юқори натижаларини тенгдошларига намуна қилиб кўрсатиш кутилган самараларни беради.

Дарвоқе, форум иштирокчилари Нукус шаҳридаги И.Савицкий номидаги давлат музейига ҳам саёҳат қилишди. “Тенгдош тенгдошга” тамойили асосида давра суҳбати ўтказилди. Шунингдек, 22 та жамоа ўртасида “Заковат” интеллектуал ўйини ташкил этилди. Унда Қорақалпоғистон Республикаси ФВВ жамоаси 1-ўринни, Андижон вилояти ФВВ вакиллари 2-ўринни эгаллаган бўлса, 3-ўрин Қашқадарё вилояти ФВВ ёшларига насиб этди.

Анвар ҚОБИЛОВ,
“Vaziyat” мухбири.



КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ

Коррупцияга қарши курашиш давлат органлари томонидан аҳолининг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданиятини юксалтириш, давлат ва жамият ҳаётининг барча соҳаларида коррупциянинг олдини олишга доир чора-тадбирларни амалга ошириш, коррупцияга оид ҳуқуқбузарликларни ўз вақтида аниқлаш, уларга чек қўйиш, бу иллатга имкон берувчи сабаблар ва шарт-шароитларни бартараф этиш, ҳуқуқбузарликларни содир этганлик учун жавобгарликнинг муқаррарлиги принципи илгари сурилади.

Қашқадарё вилоят ФВБ ва Қарши ҳарбий прокуратураси масъуллари ҳамкорлигида “Муборак нефть ва газ қазиб чиқариш бошқармаси” объектларида ёнғин хавфсизлигини таъминлашни ташкил этиш бўлими шахсий таркиби билан “Бизнинг қисм – коррупциядан холи ҳудуд” мавзусида семинар ташкил этилди. Тадбир давомида маърузачилар томонидан коррупция ва по-

рахўрлик ҳаром лўқма эканлиги, коррупцияга қарши барча тузилмаларда янгича тизим, жумладан, ички назоратни ташкил этиш ва уни амалга ошириш бўйича ҳар бир ташкилотда бажарилиши лозим бўлган вазифалар алоҳида таъкидлаб ўтилди.

Т.ТўРАЕВ,
Қашқадарё вилояти
ФВБ ШХБ бошлиғи,
подполковник.

КОМПЛЕКС ТАДБИР

Қарши ҳарбий прокуратураси, Жануби-Ғарбий махсус ҳарбий округ қўмондонлиги ва фахрийлар ҳамкорлигида ҳарбий қисмларнинг бирида ёшлар билан учрашув ўтказилди.

Унда “Жасорат мактаби” ўқув йиғинига жалб қилинган ёшлар иштирок этди.

Тадбирда ёшларнинг қизиқишлари ўрганилди, уларни қизиқтирган саволларга атрофлича жавоб берилди.

Жараёнда ёшлар ҳарбий қисмдаги шароитлар билан таништирилди. Шундан сўнг ҳарбий прокура-

тура томонидан ҳарбий қисмларнинг бирида мавжуд шароитлар ҳамда ҳудудда амалга оширилаётган қурилиш-таъмирлаш ишлари ўрганилиб, масъулларга тегишли тавсиялар берилди.

Мулоқот якунида шахсий қабул ташкил этилди.

Ш.ЗОИРОВ,
Қарши ҳарбий
прокурорининг
ёрдамчиси, адлия
полковниги.

САЙЁР ҚАБУЛ

Ўзбекистон Республикаси Бош прокурорининг ўринбосари — Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокурори Б.Кудратходжаев томонидан Қуролли Кучлар вазирлик ва идоралари масъуллари билан ҳамкорликда мамлакатимизнинг олис ҳудудларида оммавий сайёр қабуллар ўтказиб келинмоқда.

Навбатдаги қабул Бухоро вилоятининг Қорақўл туманида бўлиб ўтди. Қабулда ҳарбий хизматчилар ва уларнинг оила аъзолари, пенсионерлар ва ёшлар тингланди. 44 та мурожаатдан 8 таси жойида ижобий ҳал этилди, 26 тасига

ҳуқуқий тушунтириш берилди, 10 таси назоратга олинган ҳолда мутасаддиларга йўналтирилди.

М.НАЗАРОВ,
Бухоро ҳарбий
прокурорининг ўринбосари,
адлия подполковниги.

ФАОЛИЯТ

Наманган ҳарбий прокуратураси томонидан ҳуқуқбузарлик ва жиноятларнинг олдини олишга қаратилган профилактик тадбирлар мунтазам ўтказиб келинмоқда.

Бу каби тадбирлар назорат ҳудудидаги қатор ҳарбий қисм ва муассасаларда мулоқотлар шаклида давом этди.

Уларда ҳуқуқбузарлик тушунчаси, таснифи, жиноят учун жавобгарлик асослари, жазо тизими ва бошқа ҳуқуқий таъсир чоралари ҳақида тушунтиришлар берилди.

Сўнгра вилоят қўриқлаш бошқармасида ва ҳарбий қисмларнинг бирида ўрганишлар олиб борилди.

Жараёнда навбатчилик қисми ҳамда Ахборот–таҳлил ва мониторинг мар-

кази фаолияти, ҳарбий хизматчилар ва ходимларнинг хизмат фаолиятига эътибор қаратилди.

Шунингдек, хизматни ўташ учун яратилган шароитлар, техник воситалар шайлиги ҳамда фаолиятига доир бошқа масалалар ўрганилди.

Масъуллар билан мулоқотлар давомида ўрганилган масалалар юзасидан тегишли тавсиялар берилди.

М.БОЗАРМИРЗАЕВ,
Наманган ҳарбий прокурори,
адлия подполковниги.

Иштихон туманида Самарқанд вилоят ФВБ бошлиғи ўринбосари Ў.Маматов, истеъфодаги полковник Қ.Эргашов ва туман ҳокими ўринбосари Ж.Бердиев иштирокида “Раҳбар ва ёшлар” учрашуви бўлиб ўтди.

БИЛИМ ВА ТАЖРИБАЛАР ЭЪТИРОФИ



Учрашувда Қўшрабат, Оқдарё, Пайариқ ва Иштихон туманлари ФВ бўлимларида хизмат қилиб келаётган ёш ҳарбий хизматчи ва хизматчилар ҳамда оталиққа олинган ёшлар иштирок этди.

Учрашув давомида раҳбар ва фахрийлар бугунги кунда ёшларга яратилаётган имкониятлар, шарт-шароитлар ва ушбу имкониятлардан унумли фойдаланиш тўғрисида сўз юритиб, ўзларининг касбий билим ва тажрибалари билан ўртоқлашдилар.

Шунингдек, учрашувда ёшлар Ў.Маматовга ўзларини қизиқтирган масалалар юзасидан бир қатор савол ва таклифларини йўллашди.

Ушбу саволларга батафсил жавоб берилиб, таклифлар ижроси юзасидан зарур чора-тадбирлар белгиланди.

Тадбир якунида бир гуруҳ ёшлар бошқарма бошлиғининг фахрий ёрлиғи ва эсдалик совғалари билан тақдирланди.

И.БОҚИЕВ,
Самарқанд вилояти ФВБ ахборот
хизмати бошлиғи, катта лейтенант.

ҚОНУН УСТУВОР – ЖАЗО МУҚАРРАР

Сурхондарё вилояти ФВБда “Қонун ва адолат устувор, жиноятга жазо – муқаррар” мавзусида ўқув-амалий семинар тадбири ўтказилди.



Тадбирда содир этилаётган жиноятлар, уларнинг олдини олиш ва ушбу жиноий ҳодисага олиб келаётган шарт-шароитларни ўз вақтида бартараф этиш, ижтимоий тармоқлардан тўғри фойдаланиш, одобахлоқ, йўл ҳаракати хавфсизлиги қоидаларига қатъий риоя қилиш, турли таваккалчиликка асослаган қимор ўйинларини ўйнаш натижасида вужудга келадиган ҳуқуқбузарликлар ҳақида сўз борди.

Семинар давомида барча ҳарбий хизматчи ва хизматчиларга ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва жиноятчиликка қарши курашишда манзилли ишлаш муҳимлиги айтилиб, бунинг учун ҳамма бирдек масъуллиги алоҳида таъкидланди.

А.АБДУЛЛАЖОНОВ,
Сурхондарё вилояти ФВБ ходими,
лейтенант.

ЁШЛАР САЙЛИ

“Ёшлар ойлиги” доирасида Жиззах шаҳридаги “Ўрда” экологик боғида “Янги Ўзбекистон ёшлари, бирлашайлик!” шиори остида сайил бўлиб ўтди.

Шунингдек, унда умумтаълим мактабларининг “Ватан таянчи” болалар ва ўсмирлар ватанпарварлик ҳаракатининг фаол аъзоларига имтиёзли тавсиянома-лар топшириш маросими ўтказилди.

Тантанали тадбирда Жиззах ҳарбий прокуратураси, Ўзбекистон ёшлар иттифоқи вилоят Кенгаши, Мудофаа ишлари бошқармаси вакиллари, фахрийлар ва ўқувчи-ёшлар иштирок этди.

Тадбирда сўз олганлар томонидан ёшлар учун яратилган кенг имкониятлар ва имтиёзлар ҳақида тушунтиришлар берилди.

Ватанни мадҳ этувчи куй-қўшиқлар ва ҳарбий хизматчиларнинг кўргазмали чиқишлари барчага завқ бағишлади.

Ш.ХОДЖИЕВ,
Жиззах ҳарбий прокурорининг катта
ёрдамчиси, адлия майори.

МАРОҚЛИ УЧРАШУВ

Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокуратурасида енгил атлетика бўйича Олимпия, Жаҳон, Осиё ва Европа чемпиони, спорт устаси Оксана Чусовитина билан учрашув бўлиб ўтди.

Тадбирда видеоконференцалоқа тарзида маҳкама ва ҳудудий ҳарбий прокуратуралар ходимлари иштирок этди.

Оксана Чусовитина 8 марта Олимпия ўйинларида иштирок этиб, гимнастика тарихи ва “Гиннеснинг рекордлар китоби”га киритилган. Юртимизда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 14 мартдаги қарори билан гимнастика бўйича Оксана Чусовитина спорт маҳорати мактаби ташкил этилган.

Сўхбат давомида қаҳрамонимиз ўз хотиралари билан ўртоқлашди. Учрашув қизиқарли савол-жавоблар остида ўтди.

А.ҚУРБОНОВ,
Тошкент ҳарбий прокурорининг
ёрдамчиси, адлия подполковниги.

ТАШВИҚОТ

Навоий вилояти Кармана тумани “Маъданият маркази”да вилоят ФВБ бўлим бошлиқлари, инспекторлари, шаҳар ва туман ФВ бўлими бошлиқлари ёнғин профилактикаси йўналиши бўйича “Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида” намунавий ўқув режаси ва дастурига мувофиқ давлат ёнғин назорати органлари мансабдор шахсларининг касбий билимларини ошириш бўйича ўқув семинар ўтказилди.

Семинар давомида вилоят ФВБ масъул ходимлари ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлари ходимлари томонидан юзага келиши мумкин бўлган коррупцион ҳолатларнинг олдини олиш, камчилик ва қонун бузилиши билан боғлиқ вазиятларга йўл қуймаслик юзасидан маърузалар қилинди.

Н.КАРИМОВ,
Навоий вилояти ФВБ ШХБ
бош инспектори, капитан.

Xorazm viloyati Shovot tumani FV bo'limi tomonidan obyektlar qurilishi uchun ajratilishi tavsiya etilgan yer uchastkalari materilallarini kelishish bo'yicha kelib tushgan 227 ta murojaat o'rganilib, ijobiy xulosalar va tavsiyalar berildi.

YO'RIQNOMA BERILDI

Tuman hududida hozirgi kunda manzilli dastur asosida 19 ta maskanda yangi qurilish va rekonstruksiya ishlari olib borilmoqda. Barcha qurilish obyektlarida o'rganish ishlari olib borilib, ustalariga qurilishda yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tushuntirish o'tkazildi.

R.QADAMBOYEV,
Shovot tumani FV bo'limi P va NB
katta inspektori, kapitan.



KASBIY KO'NIKMALAR OSHIRILDI

Samarqand viloyati FVB va uning tarkibiy tuzilmalarida faoliyat olib borayotgan qutqaruvchi-haydovchilarning bilim saviyasi, mahoratini oshirish va kasbiy ko'nikmalarini yanada mustahkamlash maqsadida 6-yong'in-qutqaruv qismida amaliy o'quv seminari o'tkazildi.

O'quv seminarida boshqarma mas'ul xodimlari tomonidan tadbir ishtirokchilarining ish faoliyatida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar muhokama etilib, zarur ko'rsatmalar berildi.

Bundan tashqari, zamonaviy yong'in qutqaruv texnikalarining taktik va texnik imkoniyatlari avtomobillarni ishlab chiqaruvchi korxonalar mutaxassislari tomonidan batafsil tushuntirildi.

Seminar yakunida haydovchilarning bilim darajasini baholash maqsadida sinov testlari olindi.

M.XURRAMOV,
Samarqand viloyati FVB xodimi,
mayor.

SEMINAR

Farg'ona viloyati FVB rahbar xodimlari hamda Fuqaro muhofazasi institutining professor-o'qituvchilari ishtirokida "Maktablarda ofatlar tahdidini boshqarish va pasaytirish rejalarini ishlab chiqishga qaratilgan uslubiy qo'llanmani joriy etish" mavzusiga bag'ishlangan konsultativ seminar o'tkazildi.

A.ALIJONOV,
Farg'ona viloyati FVB axborot xizmati
rahbari, kapitan.



XAVFSIZLIK

Hozirgi jazirama kunlarda basseyn va suv havzalarida hordiq chiqarish kishiga orom bag'ishlaydi. Lekin suzishning ham o'z qoidalari bor.

Avvalambor, faqatgina ruxsat etilgan suv havzalarida cho'milish tavsiya etiladi. Havzaga kelib, darhol suvga tushmaslik kerak. Bu tomirlarning tortishishiga olib keladi. Badanni 10-15 daqiqa suvga ko'niktirib, so'ng ohista suvga tushish va cho'milish zarur. Havo harorati 23 darajadan past bo'lgan vaqtda ochiq

joyda cho'milish mumkin emas.

Ovqatlanish va suzish davridagi oraliq vaqt muhim ahamiyatga ega. Bir vaqtning o'zida ham cho'milish, ham tamaddi qilish taqiqlanadi.

Quyoshda uzoq toblangandan keyin ham suvga tushish yoki sho'ng'ish tavsiya etilmaydi. Bu holat muskullarni qisqartirib, yurak faoliyatining to'xtashiga olib kelishi mumkin.

O.CHINTASHEV,
FMI katta o'qituvchisi.
R.SOBIROV, o'qituvchi.

MUHIM TADBIRLAR

Buxoro viloyati Qorovulbozor tumanidagi ochiq suv havzasida yoz mavsumida cho'milish havzalarida suvda cho'kish bilan bog'liq baxtsiz hodisalarning oldini olishga qaratilgan amaliy seminar o'tkazildi.

Tadbirda tuman aholisiga suvda cho'milish qoidalari, cho'kkan odamni qutqarish va unga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, qayiqlardan foydalanishda xavfsizlik masalalari bo'yicha ham nazariy, ham amaliy ko'nikmalar berildi.

O.MIRZAYEV,
Buxoro viloyati FVB boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik.

ISTIROHAT BOG'LARIDA

Yashnobod tumani FV bo'limi tomonidan Ashxobod sayilgohining favqulodda va yong'in xavfsizligi holati doimiy ravishda o'rganib borilmoqda.

O'rganish davomida aniqlangan kamchiliklar yuzasidan sayilgoh rahbariga kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan ogohlantirish va tavsiyalar berilib, bartaraf ettirish choralarini ko'rilmogda. Qolaversa, sayilgohni ko'zdan kechirish davomida ishchi-xodimlarga yo'riqnoma o'tilib, yanada hushyorlikka chaqirilmoqda.

A.HAYITBOYEV,
Yashnobod tumani FV bo'limi inspektori, katta leytenant.



TARG'IBOT

"Qamchiq" MQYOQB xodimlari hududdagi savdo rastalarida hamda aholi yashash xonadonlarida fuqarolarga profilaktik tushuntirish-targ'ibot ishlarini olib borishdi.

Bundan tashqari, yong'in-qutqaruv otryadi xodimlari tomonidan savdo rastalarida yong'in qamchiq tadbirlarining bajarilishi, birlamchi yong'in o'chirish vositalari bilan jihozlanganligi, suv hovuzlari mavjudligi va ularga olib boradigan yo'llarning to'sib qo'yilmaganligi o'rganib chiqildi.

G'.OLIMJONOV,
"Qamchiq"MQYOQB YOQO smena
boshlig'i, kapitan.

Yangiqo'rg'on tumani hokimi – Fuqaro muhofazasi boshlig'ining buyrug'iga asosan tumanda 15-maydan 25-sentyabrga qadar "Suvda cho'milish bilan bog'liq baxtsiz hodisalarning oldini olish oyligi" e'lon qilingan.

AMALIY HARAKAT

Oylik doirasida fuqarolarning suvda cho'kish bilan bog'liq noxush holatlarning oldini olish, cho'milish havzalarida xavfsizlikni ta'minlash mavzusida o'quv-amaliy seminar o'tkazildi. "Eski yer" suv omborida tashkil etilgan mazkur ko'rgazmali o'quv-amaliy seminar suvda cho'kayotgan odamni qutqarish hamda jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish qoidalari yuzasidan amaliy harakatlar ko'rsatildi.

Tadbirda tuman FV bo'limi, Milliy gvardiya xodimlari, tibbiyot birlashmasi shifokorlari hamda "Eski yer" suv ombori ishchi-xizmatchilari ishtirok etdilar.

S.OBIDDINOV,
Yangiqo'rg'on tumani FV bo'limi bo'linma
boshlig'i, leytenant.
Sh.JUMANALIYEV,
bo'linma kichik inspektori, kichik serjant.

UCH AVLOD UCHRASHUVI

Xorazm viloyati FVBda viloyatdagi 2-sektordan otaliqqa olingan yoshlar hamda kasb-hunar va umumta'lim maktablari o'quvchilari uchun "Ochiq eshiklar kuni" hamda "Uch avlod uchrashuvi" tadbirlari tashkil qilindi.

Tadbir davomida ustoz va faxriylarimiz hayoti, mehnat faoliyati davomida to'plagan boy tajribasi, yoshlik davridagi o'ziga xos qiyinchiliklar, mehnat pallasidagi mashaqqatlar, nihoyat, nuroniylik paytida ko'rsatlayotgan hurmat-ehtirom haqida o'z dil so'zlarini, samimiy fikrlarini bildirib o'tdilar. Qolaversa, harbiy xizmatchilarning farzandlariga Respublika oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun imtiyozli tavsiyanomalar taqdim etildi. Shuningdek, "Yoshlarni favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot tadbirlarida ishtirok etishga tayyorlash bo'yicha o'quv kursi" dasturini muvaffaqiyatli tugatgan yoshlarga "Favqulodda vaziyatlar profilaktikasi targ'ibotchisi" sertifikatlari hamda namunalari xizmat qilib kelayotgan bir guruh harbiy xizmatchilarga navbatdagi harbiy unvonlar tantanali topshirildi.

D.QURBANDURDIYEV,
Xorazm viloyati FVB
bo'lim boshlig'i, mayor.
H.RUSTAMOV,
boshqarma axborot
xizmati boshlig'i, leytenant.

SAROY BINOSIDA...

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ va “Navoiyuran” DK obyektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish markazi tomonidan “Farhod” madaniyat saroyi binosida yong'in o'chirish amaliy-o'quv taktik mashqi o'tkazildi.



Unda viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasi, Milliy gvardiya qo'riqlash xizmati, tez tibbiy yordam xizmati, shahar ichki ishlar bo'limi va kombinatining Navoiy sanoat maydonidagi mas'ul xodimlari ishtirok etishdi.

Mashg'ulot davomida madaniyat saroyining sahna pastki qismida ommaviy tadbir o'tkazilayotgan vaqtda shartli ravishda zilzila yuzaga keltirilib, favqulodda holat e'lon qilindi. 30 nafarga yaqin tomoshabinlar va “Sug'diyona” sport sog'lomlashtirish majmuasi qoshida tashkil etilgan 100 nafarga yaqin bolalar sog'lomlashtirish tarbiyalanuvchilari xavfsiz hududga evakuatsiya qilindi.

Shartli ravishda sodir bo'lgan zilzila hodisasi natijasida elektr tokining qisqa tutashuvi sodir bo'lib, buning natijasida yuzaga kelgan yong'indan jabrlangan fuqarolarga birinchi yordam ko'rsatilib, tez tibbiy yordam xodimlariga topshirildi.

Mashq nihoyasida hamkorlikdagi tashkilotlar va markazning quyi tizm xodimlaridan iborat bir guruh tajribali xodimlar bilan mashq muhokamasi bo'lib o'tdi. Unga jalb qilingan ishtirokchilar tomonidan kamchiliklar muhokama qilindi.

Shundan so'ng madaniyat saroyi tarbiyalanuvchilari bilan yong'in-qutqaruv texnikalarining ko'rgazmali namoyishi bo'lib o'tdi. Unda bolajonlar ozlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi.

M.HAYITOV,
NKMK AJ va “Navoiyuran” DK obyektlarida
YOXTTEM kichik inspektori,
katta serjant.

“TUTUNXONA”DA MASHG'ULOT

Namangan viloyati FVB quyi tizimlari bilan boshqarma boshlig'i tomonidan tasdiqlangan rejaga asosan shaxsiy tarkibning jangovar, jismoniy va ruhiy tayyorgarligini oshirish maqsadida, yong'in-qutqaruv bo'linmalarida tashkil etilgan gaz tutundan himoyalash xizmati bilan boshqarma 1-yong'in-qutqaruv qismidagi “Issiq tutunxona” hamda ruhiy tayyorgarlik yo'lagida amaliy mashg'ulot o'tkazildi.

Namangan viloyati FVB quyi tizimlari bilan boshqarma boshlig'i tomonidan tasdiqlangan rejaga asosan shaxsiy tarkibning jangovar, jismoniy va ruhiy tayyorgarligini oshirish maqsadida, yong'in-qutqaruv bo'linmalarida tashkil etilgan gaz-tutundan himoyalash xizmati bilan boshqarma 1-yong'in-qutqaruv qismidagi “Issiq tutunxona” hamda ruhiy tayyorgarlik yo'lagida amaliy mashg'ulot o'tkazildi.

Mashg'ulot davomida nafas olishga yaroqsiz muhitda odamlarni qutqarish, qidirish, moddiy boyliklarni xavfsiz joyga olib chiqish, sodir bo'lgan yong'in oqibatlarini bartaraf etishda jangovar harakatlarini amalga oshirish ko'nikmalari mustahkamlahdi.

A.O'RINBOYEV,
Namangan viloyati FVB boshlig'ining birinchi
o'rinbosari – Shtab boshlig'i, polkovnik.
B.OTABAYEV,
Namangan shahar FV bo'limi katta inspek-
tori, kapitan.

O'zbekiston kurash federatsiyasi tashabbusi bilan “Xotin-qizlar o'rtasida milliy sportni yanada ommalashtirish, gender tenglikni ta'minlash hamda xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish” mavzusida seminar tashkil etildi.

GENDER TENGLIK

Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Sport vaziri A.Ikromov, Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi raisi M.Qodirxonova, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi O.Parpiboyeva, Bosh prokuror o'rinbosari S.Artikova, Milliy Olimpiya qo'mitasi bosh kotibi hamda huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari ishtirok etishdi.

Seminar davomida ma'ruzachilarning nutqlari tinglandi, shuningdek, sportning kurash turi bo'yicha Tehron shahrida o'tkazilgan XIII Osiyo chempionatida ishtirok etib, g'oliblikni qo'lga kiritgan sportchi qizlarimiz o'z taassurotlarini o'rtoqlashishdi.

Sportchi qizlar ichida FVV xodimasi oddiy askar Shahnoza Bozorova Hindiston va Turkmanistonlik kurashchi qizlarni yengib, oltin medal bilan Vatanga qaytganligi ham alohida e'tirof etildi.

M.MINGBAYEVA,
FVV inspektori kichik serjant.

HAMKORLIKDA

Qibray tumani FV bo'limi tomonidan 20-DMTTda “Aholini zilzilaga tayyorlash haftaligi” doirasida fuqaro muhofazasi tuzilmalari hamda FVDT xizmatlari hamkorligida maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.



O'quv mashg'ulotida zilzila bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarda aholi xavfsizligini ta'minlash, seysmik xavfsizlikni ta'minlashning yangi usullarini joriy qilish hamda zilzila vaqtda bino va inshootlardan aholini evakuatsiya qilish kabi jarayonlar bevosita amaliyotda sinovdan o'tkazildi.

R.SHAKIROV,
Qibray tumani P va NB inspektori, kapitan.
M.RUSTAMOV,
bo'lim inspektori, katta leytenant.

MUSOBAQA

Qoraqalpog'iston Respublikasi FVBga otaliqqa olingan yoshlardan tashkil etilgan “Yosh qutqaruvchi” ko'ngilli klublari o'rtasida boshqarma boshligi kubogi musobaqasi o'tkazildi.

Unda Nukus shahar va tumanlardan 136 nafar yosh ishtirok etti.

Musobaqa yakunida 1-o'rinni Nukus shahar FV bo'limiga otaliqqa olingan yoshlardan tuzilgan jamoa, 2-o'rinni Taxiotosh tumani FV bo'limidan otaliqqa olingan yoshlar jamoasi, 3-o'rinni, Beruniy tumani FV bo'limidan otaliqqa olingan yoshlar jamoasi egalladi.

A.ABDIRAHMANOV,
Qoraqalpog'iston Respublikasi FVB axborot
xizmati boshlig'i, kapitan.

SHOXOBCHADA...

“Chinoz Don” qabul qilish shoxobchasida o'quv-taktik amaliy mashg'uloti o'tkazildi.



Mashg'ulot davomida shartli yong'in hodisasi sodir qilinib, jangovar bo'linmalar tomonidan ushbu yong'inni qisqa vaqtda bartaraf qilish ishlari olib borildi. Shuningdek, maskan ishchi-xodimlariga ish vaqtda yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish borasida tushuntirish ishlari o'tkazildi.

A.QO'SHAQOV,
Chinoz tumani FV bo'limi boshlig'i
o'rinbosari, kapitan.

KUCH-VOSITALAR SHAYLIGI

Qashqadaryo viloyati FVB tomonidan yong'in o'chirish mashg'uloti o'tkazildi.

O'quv mashg'uloti rejasiga ko'ra tadbirlarda tizimdagi 17 ta “Katta va murakkab yong'inlarni o'chirish tayanch maskani” maxsus texnikalari, shuningdek, jami bo'lib 98 nafar shaxsiy tarkib ishtirok etdi.

M.OSTONOV,
Qashqadaryo viloyati FVB boshlig'ining
birinchi o'rinbosari — Shtab boshlig'i,
podpolvonik.

KO'RSATMALAR BERILDI

FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazida vazirlik tizimdagi harbiylashtirilgan yong'in-qutqaruv qismida yangi qabul qilingan yosh qutqaruvchilari tarkibi bilan avariya-qutqaruv asbob-anjomlarini ishlatish, favqulodda holatlar ro'y berganda jabrlanganlarni bino ostidan olib chiqish bo'yicha musobaqa o'tkazildi.



Sohamizning yosh harbiy xizmatchilari musobaqa davomida avariya-qutqaruv asbob-anjomlarini o'zlari ishlatib ko'rib, o'zaro bellashishdi. O'quv yig'ini davomida olgan nazariy bilimlarini amalda mustahkamladilar. Yakunda tinglovchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan ko'rsatmalar berildi.

J.XOLMURODOV,
FVV BT va MOM
katta o'qituvchisi, mayor.

АЖДОДЛАР ИЗИДАН

Сирдарё вилоятида “Аждодлар изидан” интеллектуал ўйинининг Фавқуллодда вазиятлар вазирлиги босқичи ўтказилди. Қорақалпоғистон Республикаси, Тошкент шаҳар ва вилоятлар Фавқуллодда вазиятлар бошқармаларидан ташриф буюрган 14 та жамоа ғолиблик учун ўзаро баҳс олиб боришди.



Тадбирда сўз олганлар ҳарбий хизматчилар ўртасида ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириш, фавқуллодда вазиятлар ваизирлиги тизимидаги ёшларни қўллаб-қувватлаш, ўз ижодий ва интеллектуал салоҳиятини рўёбга чиқаришлари учун

зарур шарт-шароитлар яратиш, уларни касбий савиясини юксалтиришга алоҳида эътибор қаратилаётганлигини таъкидлашди.

Танловда буюк саркардаларимизнинг жанг санъати, жамият ва давлат ҳаётида амалга оширган ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва

ҳарбий ислохотлари ҳамда фавқуллодда вазиятлар тизимига оид савол-жавоблар ташкил этилди.

Яқиний натижаларга кўра, 3-ўрин Тошкент шаҳар ФВБнинг “Халоскорлар” жамоасига насиб қилган бўлса, 2-ўринга Андижон вилояти ФВБнинг “Андижон оғалари” жамоаси муносиб, деб топилди. 1-ўринни “ЛУКОЙЛ Ўзбекистан оперейтинг компания” МЧЖ объектларида ёнгин хавфсизлигини таъминлашни ташкил этиш марказининг “Лукойл” жамоаси қўлга киритди. Ғолиб ва савриндорлар ташкилотчиларнинг диплом ва қимматбаҳо совғалари билан тақдирланди.

Д.СУЛАЙМОНОВ,
Сирдарё вилояти ФВБ
Ахборот хизмати бошлиғи,
капитан.

С.ШЕРМАТОВ,
Сирдарё вилояти ФВБ
бўлими бошлиғи,
капитан.

Шаҳрисабз тумани ФВ бўлими ходимлари ташаббуси билан янги барпо этилаётган бино ва иншоотларда қурувчи ва мутахассислар ўртасида фавқуллодда вазиятларнинг олдини олиш ва ёнгин хавфсизлигини таъминлаш бўйича ўтказилган профилактик тарғибот тадбири ҳар томонлама самарали бўлди.

ТАВСИЯЛАР БЕРИЛДИ

Унда соҳа мутахассислари ёнгин хавфсизлиги қоидаларига амал қилиш, фавқуллодда вазиятларда тўғри ҳаракатланиш ва бирламчи ёнгин ўчириш воситаларидан фойдаланиш тартиби бўйича тавсиялар беришди.

Соҳа масъуллари томонидан кейинги тарғибот тадбири тумандаги Ҳисорак

сув омборида фаолият олиб бораётган туризм масканида ташкил этилиб, унда дам олувчи аҳолининг хавфсизлигини таъминлаш бўйича зарур тавсиялар берилди.

Н.БУКБУТАЕВ,
Шаҳрисабз тумани
ФВ бўлими бошлиғи
ўринбосари, подполковник.



ҲАФТАЛИК ДОИРАСИДА



Қораўзак тумани ФВ бўлими томонидан 28-умумтаълим мактабида, “Қораўзактумангаз” бўлимида ҳамда “Қутлы макан” маҳалла фуқаролар йиғинида банд бўлмаган аҳоли иштирокида “Зилзила билан боғлиқ фавқуллодда вазиятларда аҳоли хавфсизлигини таъминлаш ва ФВДТ туман бўғини хизматлари билан ҳамкорликдаги ҳаракати мавзусида ўқув машқлар ўтказилди.

Д.ДАУЛЕТБАЕВ,
Қораўзак тумани ФВ бўлими бошлиғи, майор.
А.АМИРХАНОВ,
бўлинма бошлиғи, катта лейтенант.

ПРОФИЛАКТИК ИШЛАР

Наманган шаҳар ФВ бўлими томонидан қурувчи ишчи-ходимларга қурилиш майдонларида ёнгин, чакнаш, ис ва газ ҳамда озиқ-овқат маҳсулотларидан заҳарланиш каби кўнгилсиз ҳодисаларнинг олдини олиш ҳамда қурилиш майдонларида ёнгин-техника хавфсизлиги қоидаларига амал қилиш борасида кўшимча йўриқномалар берилмоқда.

Шунингдек, бўлимга келиб тушган 23 та тадбиркорлик ишларини амалга ошириш учун ер танлаш масаласидаги мурожаатлар атрофлича ўрганиб чиқилди. Келишиш учун тегишли лойиҳа ташкилотлари томонидан электрон тизим орқали юборилган 205 та лойиҳа смета ҳужжатлари ҳам ўрганиб чиқилиб, замонавий шаҳарсозлик

соҳасида бино-иншоотларда ёнгин хавфсизлигини таъминлашга хизмат кўрсатиш фавқуллодда вазиятларда фуқароларнинг эркин ҳаракатларини таъминлашга доир 220 та тавсия берилди.

П.ДАВЛАТОВ,
Наманган шаҳар
ФВ бўлими кичик
инспектори.

Равот маҳалласи ҳудудида жойлашган Дилшод Санаев фермер хўжалигида ташкил этилган профилактик тадбирда асосий эътибор мавсумни беталафот ўтказишга қаратилди.

ҒАЛЛАНИ АСРАЙЛИК



Тадбир давомида мавсумга жалб қилинган ишчи-хизматчилар, комбайн операторлари ва механизаторларга ёнгинларнинг келиб чиқиш сабаблари, олдини олиш ва бартараф этиш бўйича йўриқномалар берилди.

А.ҚУЛБУЛОВ,
Косон тумани ФВ бўлими бошлиғи
ўринбосари.

СУВ МАНБАЛАРИ ЎРГАНИЛДИ

Қашқадарё вилояти Яккабоғ тумани ФВ бўлими ва “Қашқадарё сув таъминоти” АЖ Яккабоғ тумани филиали ходимлари ҳамкорлигида “Янгиобод” маҳалласида мавжуд ёнгинга қарши сув манбаларининг ҳолати ўрганилди.

Ўрганишлар давомида 4 дона носоз ерости сув олгичлар аниқланиб, тегишлилиги бўйича мутахассислар томонидан қисқа вақт ичида мавжуд

камчиликлар бартараф этилишига эришилди.

Қ.МИНГБОВЕВ,
Яккабоғ тумани
ФВ бўлими 22-КЕҶҚ
бошлиғи.

ТАДБИР

Наманган вилояти ФВБ томонидан тегишли хизматларда ўрганишлар ўтказилди.



Санитария-эпидемиология осойишталик ва жамоат саломатлиги, Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши, Гидрометеорология ҳамда Ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш бошқармалари, шунингдек, Наманган сув таъминоти МЧЖни нг атроф-муҳитни лаборатор назорат-кузатув тармоғи томонидан аҳоли ва ҳудудларни та-

бият ва техноген хусусиятли фавқуллодда вазиятлардан муҳофаза қилиш ҳолатлари бошқарма РК ва ТБМТЭ бўлими ходимлари томонидан ўрганилиб, аниқланган камчиликларни бартараф этиш юзасидан тавсиялар берилди.

Р.ЭГАМБЕРДИЕВ,
Наманган вилояти
ФВБ бўлим етакчи
мутахассиси.

Қашқадарё вилояти ФВБ масъуллари томонидан Қарши шаҳридаги савдо мажмуаларининг ёнгин хавфсизлиги ҳолати ўрганилди.

НАЗОРАТ

Дастлаб “Ерқўрғон деҳқон озиқ-овқат” бозори кўздан кечирилганда, ёнгин-қутқарув техникасининг эркин ҳаракатланиши учун бир қанча тўсиқлар борлиги аниқланди ва зудликда жойида бартараф этишга эришилди. Афсуски, бозор ҳудудида бир қатор камчиликлар аниқланиб, электр симларининг очиқ ҳолатда туриши бир қанча дўконларда кузатилди.

Аниқланган камчиликлар юзасидан бозор маъмуриятига уларни белгиланган муддатда бартараф этиш юзасидан топшириқ берилди.

Х.ҚОСИМХЎЖАЕВ,
Қашқадарё вилояти ФВБ бошлиғи
ўринбосари, майор.

YONG'INLAR PROFILAKTIKASI



Yong'in xavfi yuqori obyektlarda yong'in xavfsizligini mustahkamlash, ularning rahbarlari bilan yong'in-taktik o'quv va mashg'ulotlarini, tushuntirish ishlarini tashkil etish samarali ishlar sirasiga kiradi. Chunki bunday tadbirlar davomida ishchi-xizmatchilar va aholining birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish va to'g'ri harakat qilish tartibi bo'yicha bilimlari oshiriladi. Yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish, yosh bolalarni nazoratsiz qoldirmaslik, elektr manbasidan belgilangan talablar asosida foydalanish orqali ko'ngilsiz hodisalarning oldini olishga erishiladi.

B.MAXSUDOV,
O'zMETRKOYXTTEB kichik inspektori,
oddiy askar.



O'QUV MASHG'ULOTI

Sergeli tumani FV bo'limi xodimlari maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli 317-umumta'lim maktabi binosida tashkil etilgan bolalar yozgi oromgohida zilzila vaqtida to'g'ri harakatlanish to'g'risida videodars o'tkazildi.

D.RAJABOV,
Sergeli tumani FV bo'limi P va NB
katta inspektori, kapitan.

QOIDALARGA RIOYA ETING!

Davlatobod tumani hududidagi har bir mahallada cho'kish bilan bog'liq hodisalarning oldini olishga qaratilgan tadbirlar tashkil etildi. Taqiqlangan joylarda cho'milmaslik, yosh bolalarni suvda qarovsiz qoldirmaslik, ko'priklardan suvga sakramaslik kerakligi tushuntirildi. Shuningdek, tuman hududidan oqib o'tgan kanallarga "Cho'milish mumkin emas" taqiqlovchi belgilari o'rnatib chiqildi.

S.RAHIMOV,
Davlatobod tumani FV bo'limi boshlig'i
o'rinbosari, podpolkovnik.

CHO'MILISH QOIDALARI




Tumanimizda cho'milishga ruxsat etilgan va cho'milish taqiqlangan ochiq suv havzalari bor. Cho'milish taqiqlangan havzalarga: daryolar, ariqlar, kanallar kiradi. Bunday joylarda cho'milish taqiqlanadi. Ruxsat etilgan suv havzalarida esa maxsus qutqaruvchilar bo'ladi. Ushbu joylarning tubi tozalab turiladi. Shuningdek, ushbu joylarda qutqaruv minorasi bo'ladi.

Yoz mavsumida tog'larga, soya-salqin hududlarga chiqiladi. Bunday joylarda katta yoshdagi insonlarning cho'kib ketish holatlari uchray turadi. Holatlar o'rganilganda aksari spirtli ichimliklarni iste'mol qilib cho'milgani ma'lum bo'ladi. Shu bois spirtli ichimlik ichib cho'milish tavsiya etilmaydi. Nega deganda, spirtli ichimlik iste'mol qilgan inson sarxush bo'ladi. U hattoki, tekis yerda muvozanatini boshqara olmaydi. Bunday insonlar suvga tushib ketadi yoki suvda cho'milish natijasida o'zlarini boshqarolmay qoladi va cho'kib ketish ehtimoli ortadi.

M.VALIJONOV,
Dang'ara tumani FV bo'limi kichik inspektori,
oddiy askar.

SEMINAR



Namangan viloyati FVBda shahar hamda barcha tumanlar FV bo'limlari Navbatchi-dispatcherlari bilan algoritim bo'yicha harakatlanish va FVDT xizmatlariga xabar berish tartibini o'rgatish maqsadida o'quv seminar o'tkazildi.

Unda Namangan viloyati FVB boshlig'ining birinchi o'rinbochari – Shtab boshlig'i polkovnik Akmaljon O'rinbayev so'z olib, xabar berish sxemasi bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarga to'xtaldi va sodir bo'lgan yong'in hamda boshqa tushdagi favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish yuzasidan tushunchalar berdi.

I.MELIBOYEV,
Namangan viloyati FVB
axborot xizmati yetakchi
mutaxassisi.

QARSHI CITYDA SINOV



Qashqadaryo viloyati FVB xodimlari va hamkor xizmatlar bilan birgalikda Qarshi shahri hududidagi 16 qavatli Qarshi city aholi turar-joylarida o'quv mashg'uloti o'tkazildi. Sodir bo'lgan shartli yong'inidan so'ng, u haqida dastlabki ma'lumotlar barcha tezkor xizmatlarga etkazildi. Zudlikda ushbu manzilga yong'in-qutqaruv texnikalari jalb qilindi, qutqaruvchilar tomonidan yong'inni bartaraf etish, jalb qilinadigan kuch-vositalarni to'g'ri yo'naltirish, jabrlanganlarni xavfsiz hududga olib chiqish va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish harakatlari amalga ko'rsatib o'tildi.

Mashg'ulotda qutqaruvchilarning baland qavatli binolardan fuqarolarni qutqarish borasidagi harakatlari sinovdan o'tkazildi. Tadbir so'ngida soha xodimlari fuqarolarga yong'in xavfsizligi qoidalarini bo'yicha o'z tushuncha va tavsiyalarini berishdi.

M.OSTONOV,
Qashqadaryo viloyati FVB boshlig'ining
birinchi o'rinbosari –
Shtab boshlig'i, podpolkovnik.

Chust tumani FV bo'limi tomonidan tumandagi "Yuqori" MFY hududidagi "Mehrjon" bolalar dam olish oromgohida amaliy-taktik mashg'ulot o'tkazildi. "Temurbeklar maktabi" o'qituvchilari ishtirokida ko'rgazmali chiqishlar o'tkazildi.

OROMGOHDA

Oromgoh ishchi-xodimlariga birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish va yong'in sodir bo'lganda to'g'ri harakat qilish bo'yicha tushuntirish ishlari olib borildi.

M.KARIMOV, Chust tumani FV bo'limi
boshlig'i o'rinbosari, kapitan.
O.UMAROV, 25-YQQ boshlig'i,
katta leytenant.

EVAKUATSIYA QILINDI

Norin tumanida "Zilzila va boshqa tushdagi favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish, uning ikkilamchi oqibatlarini bartaraf etish, muhofazalanish, aholini xavfsiz joylarga evakuatsiya qilish, jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish, jamoaviy va shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish qoidalarini o'rgatish, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralarni yaratish, ulardan foydalanish va qayta tiklash tartibi" mavzusida ko'rgazmali maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.



Mashg'ulot davomida saf ko'rigi o'tkazilib, yig'ilganlarga o'quv mashqining maqsadi, zilzila va boshqa tushdagi favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish, muhofazalanish, jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha nazariy va amaliy tushunchalar berib o'tildi. "Suzoqovul" MFY hududida joylashgan aholiga favqulodda vaziyat sodir bo'lganda ko'p sonli jarohatlanganlarga malakali tibbiy yordam ko'rsatish maqsadida, dala sharoitida birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, jabrlangan aholini xavfsiz evakuatsiya qilish va ularga shart-sharoit yaratish harakatlari namoyish etildi.

B.MAMADALIYEV,
Norin tumani FV bolimi boshlig'i
o'rinbosari, mayor.

Маърифат соати

ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ДИНИЙ КОНФЕССИЯ ВА ТАШКИЛОТЛАР

Мамлакатимизда барпо этилаётган демократик ҳуқуқий давлат ва фуқаролик жамиятининг тамал тоши “виждон эркинлиги” тушунчаси билан чамбарчас боғлиқдир. Фуқаровий эркинликлар ичида инсоннинг ички маънавий дунёсига ва унинг руҳиятига бевосита алоқадор бўлган виждон эркинлиги демократик дунё бўйлаб умумэътироф этилган инсон ҳуқуқларининг энг асосийларидан биридир.

Фуқаролик жамияти кишилар ўртасидаги муносабатларнинг юксак маданий савия ва теран маънавий заминга асослангани билан ажралиб туради. Бундай жамиятнинг ижтимоий-маънавий ҳаётида умуминсоний қадриятларнинг устуворлиги, уларнинг мўътабар ва ҳатто, муқаддас саналиши барқарор бўлмоғи шарт. Инсоннинг қадр-қиммати, одамлар орасидаги меҳр-оқибат, самимийлик, ахлоқий поклик, инсофу адолат ва инсонпарварлик каби энг эзгу умуминсоний қадриятлар фуқаролик жамияти ҳаётининг ҳақиқий мезонларидир. Шунинг учун ҳам, Ўзбекистонда кечаётган давлат ва жамият қурилиши жараёнида том маънодаги виждон эркинлигини таъминлашга алоҳида урғу берилмоқда.

Ўзбекистонда диний-маърифий соҳада малакали кадрларни тайёрлаш бўйича комплекс тизим яратилди. Олимларимизнинг бой меросини ўрганиш ва оммалаштириш мақсадида илмий тадқиқот марказлари фаолият бошлади. Бунга мисол сифатида Ўзбекистон халқаро ислом академияси, Мир Араб олий мадрасаси, Ҳадис илми мактаби, Имом Бухорий, Имом Термизий, Имом Мотуридий халқаро илмий тадқиқот марказларини келтириш мумкин. Имом Бухорий ёдгорлик мажмуасида кенг кўламли янгилаш ва ободонлаштириш ишлари олиб борилмоқда. Шунингдек, турли миллат ва элатлар, диний конфессия вакиллари ўртасида ўзаро дўстлик ришталарини янада мустаҳкамлаш, улуғ алломуларнинг бой илмий меросини ўрганиш каби йўналишларда илгари сурилган эзгу ташаббуслар, диний бағрикенглик тамойилларини қарор топтириш, ислом динининг тинчликпарвар ва маърифатга асосланган таълимоти халқаро ҳамжамият томонидан юксак эътироф этилмоқда. Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, юртимизда фуқароларнинг виждон эркинлиги соҳасидаги конституцион ҳуқуқларини таъминлаш, жамиятда диний бағрикенглик ва динлараро дўстлик-ҳамкорлик ҳолатларини

янада мустаҳкамлашга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Очиқ ва эркин фуқаролик жамиятини қарор топтиришга қаратилган амалий чоралар натижасида мамлакатимизда нодавлат нотижорат, шу жумладан, диний ташкилотлар учун зарур шароитлар яратилди. “Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида”ги қонуннинг янги тахрирда қабул қилингани эса соҳа ривожига йўл очди. Қонунни тайёрлашда халқаро меъёр ва талаблар, биринчи навбатда, Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси, Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пакт ҳамда БМТнинг Инсон ҳуқуқлари бўйича кўмитасининг умумий тартибдаги шарҳлари пухта ўрганилиб, улардаги асосий қоида ва тамойиллар инobatга олинган. Ўзбекистон – кўп конфессияли мамлакат. Унда истиқомат қиладиган 130 дан ортиқ миллат ва элат вакиллари бир нечта конфессияга амал қиладди. Уларнинг ўзаро тинч-тотув ва ҳамкор фаолият кўрсатиши Ватанимиз равнақи, юртимиз тинчлигини таъминлашга хизмат қиладди. Барча фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳар томонлама ҳимоя қилиш кўп миллатли Ўзбекистондаги янгиланишларнинг асосий устувор йўналишидир. Шундай ажралмас ҳуқуқлардан бири – дин эркинлигидир. Мамлакатимизда эътиқод қилувчилар ибодат амалларини эмин-эркин адо этишлари учун барча шарт-шароитлар яратилмоқда. “Конфессия” сўзи (лотинча – “confessio”) ўзбек тилига айнан таржима қилинганда “эътиқод қилиш”, деган маънони англатади. Умуман олганда, диний конфессия деганда муайян диний таълимот доирасида шаклланган ва ўзига хос хусусиятларга эга эътиқод ва ушбу эътиқодга эргашувчилар жамоаси тушунилади. Бир дин доирасида юзага келган бўлса-да, ақидалар борасида фарқланадиган жамоалар ҳам диний конфессиялар жумласига киради. Диний конфессиялар манзараси ранг-баранглигини Ўзбекистонда расман рўйхатдан ўтиб, фаолият юритаётган диний конфессиялар мисолида кўриш мумкин.



Ўзбек халқининг илғор маданий ва маънавий меросини тиклаш ва янги шароитда янада ривожлантириш, бу ҳудуддаги илк замондан ҳозиргача мавжуд динларнинг тарихи, ҳаётий тажрибаси, тадрижий тараққиётини ўрганиш, Ватан тарихини чуқурроқ тушуниб етиш, уни севиш ва у билан фахрланиш ҳис-туйғуларини шакллантиришга хизмат қиладди. Дин ва қонун ўзаро муносабатларини билиш республикада демократик ҳуқуқий жамият қуриш пойдеворини мустаҳкамлашга хизмат қиладди. Жамият ҳаётида тенглик, адолат ҳолатининг устувор бўлиши ва амалиётда ўз ифодасини топиши кўзланган мақсадларга эришишга, белгиланган ижтимоий-иқтисодий, сиёсий-ҳуқуқий, маънавий-маърифий мўлжалларнинг барча учун бирдек қадр-қиммат касб этишига, фуқаролар ўртасида бирдамлик ва ҳамжиҳатлик, ўзаро бир-бирини тушуниш ва ҳурмат руҳининг қарор топишига замин яратади.

“Бағрикенглик” (толерантлик) сўзи деярли барча тилларда бир хил ёки бир-бирини тўлдирувчи мазмунга эга. Хусусан, ушбу тушунча чидамлик, бардошлилик, тоқатлик, ўзгача қарашлар ва ҳаракатларга ҳурмат билан муносабатда бўлиш, муруватлик, ҳимматлик, кечиримлик, меҳрибонлик, ҳамдардлик каби маъноларга эгаллигини қайд этиш лозим. Диний бағрикенглик ҳаммаша диний заминдаги адоватга қарши ўзига хос қалқон вазифасини ўтаган. У турли эътиқодларнинг бир замон ва маконда биргаликда мавжуд бўлишига, уларнинг ташувчилари ўртасидаги ҳамкорлик

ва ҳамжиҳатликнинг шаклланишига йўл очган. Бу эса ўз навбатида, юрт тинчлиги ва тараққиётига, умуминсоний маданият ва маънавият ривожига хизмат қилган. Ўзбекистон турли урф-одат, маданият, тил, турмуш тарзига эга бўлган, хилма-хил динларга эътиқод қилувчи бир-бирига ўхшаш бўлмаган бир неча халқлар яшаган ўлкадир.

Ўзга дин вакиллари тили, ўзига хос маданиятини ривожлантириш, анъана ва удумларини сақлашга қаратилган барча ишлар амалга оширилиб келинмоқда. Жумладан, қонунчилик соҳасида ҳам ўзининг салоҳияти ва меҳнати билан юқори мавқега эришган турли миллатга мансуб кишилар фаолият кўрсатишади. Миллий маданият, донишмандликнинг чексиз чашмалари, инсониятнинг умумий маданиятини тўлдириб борадиган янги қадриятлар, табиий муҳитга мослашишнинг асрлар оша чархланиб келган ижтимоий тажрибаси, эстетик ранг-баранглик жамиятимизда мавжуд бўлган бағрикенгликнинг негизида туради. Юзлаб черков, синагога ва ибодат уйлари, Тошкент, Самарқанд, Навоийдаги православ ибодатхоналари, Тошкент шаҳридаги католик костёли, Самарқанддаги Арман-апостол черкови, Тошкентдаги Будда ибодатхонаси қайта барпо этилди, таъмирланди.

Ўзбекистоннинг зиёрат туризми борасидаги салоҳиятини кенг намоён этиш мақсадида бир қатор хорижий давлатлар билан кенг ҳамкорлик алоқалари йўлга қўйилди. Жумладан, Буюк Британия, Марокаш, Венгрия, Саудия Арабистони, Қозоғистон, То-

жикистон, Қирғизистон, Индонезия, Япония, Туркия, Миср, Россия, Германия, Испания, АҚШ, Малайзия, Ҳиндистон, Покистон сингари давлатларнинг диний соҳага масъул турдош вазирлик ва идоралари, илмий-тадқиқот марказлари ҳамда таълим муассасалари билан ҳамкорлик меморандумлари имзоланган.

Республикаимизда турли динларга эътиқод қилувчи инсонларнинг барча ибодат ва маросимларини эмин-эркин бажариб, диний байрамларини кенг миқёсда нишонлаши учун ҳар томонлама шарт-шароитлар яратиб берилмоқда. Жумладан, мусулмонларнинг икки Ҳайит байрами, насронийларнинг Пасха ва Рождество, яҳудийларнинг Пейсах, Пуриш ва Ханука байрамлари кенг нишонланмоқда. Ушбу саналарда конфессия етакчиларининг бир-бирларини ўзаро байрам билан табриклаши яхши анъанага айланган. Ўзбекистонда фаолият юритаётган турли конфессия вакиллари ўзаро аҳил, иноқ ва ҳамжиҳатликда яшашлари ҳамда фаолият юритишлари, шубҳасиз, мамлакатдаги тинчлик ва осойишталикнинг энг муҳим омилларидан бири ҳисобланади.

Хулоса қилиб айтиладиган бўлса, Ўзбекистонда мавжуд бўлган диний вазият барча учун тенглик тамойили асосида шаклланган бўлиб, сўнгги йилларда амалга оширилган ислохот ва янгиланишлар орқали вужудга келган янги ҳуқуқ ва мажбуриятлар барча диний конфессиялар учун бирдек амал қилишини кўрсатади.

Анвар ҚОБИЛОВ
тайёрлади.

КЎХНА ШАҲАР ҲИКОЯЛАРИ

Кўпчилик Шарқ муаллифлари “Самарқанд” сўзининг биринчи қисми, яъни “Самар” сўзини шу шаҳарга асос солган ёки шаҳарни босиб олган киши номи билан боғлайдилар. Айрим европалик олимлар, бу қадимдан қолган, санскритча “Самариа”га яқин, яъни “йиғилиш, йиғин” сўздан келиб чиққан, деб изоҳлайдилар. Антик давр манбаларида шаҳар “Мараканда” деб аталган. Бу балки “Самараканда”нинг юнонча айтилишидир. X – XII асрларда яшаган олимлар Абу Райҳон Беруний ва Маҳмуд Қошғарий шаҳар номининг келиб чиқишини “Семизкент”, яъни “бой қишлоқ, шаҳар” сўзининг бузиб талаффуз қилиниши, деб тушунтирадilar.

Милоддан аввалги бир минг йилликнинг ўрталаридан Самарқанд Сўғднинг маъмурий маркази бўлган. Кўхна шаҳарнинг қолдиқлари Афросиёб харобаларида сақланиб қолган. Самарқанд орқали Шарқ ва Ғарб савдоси амалга оширилган. Буюк Ипак йўлида Самарқанд муҳим бўғин ҳисобланган. Самарқандда Шарқ ва Ғарб маданиятлари ўзаро тўқнашган ва бир-бирини бойитган. Темури ва темурийлар ҳукмронлиги даврида Самарқанд давлат пойтахти сифатида Шарқнинг энг гўзал шаҳри, Марказий Осиёнинг йирик иқтисодий, сиёсий, маданий марказига айланди. Бу даврда Кўксарой ва Бўстонсарой, ҳунармандчилик устахоналари, савдо расталари, карвонсаройлар, ҳаммомлар, шифохоналар қурилди. Боғи Нақши Жаҳон, Боғи Биҳишт, Боғи Дилқуш, Боғи Шамол, Боғи Майдон, Боғи Зоғон, Боғи Нав, Боғи Феруза, Давлатобод, Боғи Баланд каби боғлар бунёд этилди. Шаҳар ичкариси ва ташқарисидан Бибиҳоним Жоме масжиди, Гўри Амир мақбараси, Шоҳи Зинда мажмуаси, Улуғбек мадрасаси, расадхонаси каби кўплаб машҳур меъморий обидалар яратилди. Самарқанд замонасининг йирик илмий марказларидан бирига айланди. Жаҳон мумтоз адабиётининг йирик намўнадалари Абдураҳмон Жомий ва Алишер Навоий ҳам Самарқандда таълим олганлар.

Самарқанд Шайбонийлар давлатининг пойтахти бўлганда ҳам, Бухоро хонлиги даврида ҳам муҳим иқтисодий ва маданий марказ бўлиб қолаверди. Ялангўш Баҳодир ҳокимлиги даврида Регистон майдонида Шердор, Тиллакори мадрасалари, Хўжа Аҳрор Валий қабри олдида Нодир девонбеги мадрасаси қурилди.

Самарқанд шаҳрида бугунги кунгача сақланиб келган дунёга машҳур Регистон майдони Мирзо Улуғбек мадрасаси қурилиши билан бошланган. Мадраса 1417 – 1420 йилларда қурилган ва унинг ҳовлиси 81 м.дан 56 м.гача бўлган. Ушбу мадрасанинг дизайн



нери ўша пайтда таниқли олим бўлган Қавомиддин Шерозий эди. Мадраса икки қаватли бўлиб, тўртта ҳужра ва тўрт бурчақда 55 ҳужра ва катта ўқув хоналари мавжуд бўлган. 2-3 талаба махсус ҳужраларда яшаб, таҳсил олишган.

Синф хоналарида муайян гуруҳлар учун фан бўйича машғулотлар ўтказилган. Масжиднинг ғарбий қисмида иккита синф хонаси жойлашган эди. Унинг иккита эшиги бўлиб, улар синфхона ва ҳовлини боғлаб турар эди. Мадрасада юқори портал мавжуд бўлган. Унинг ён деворлари катта геометрик нақшлар билан безатилган эди. Умуман олганда, мадрасада бой нақш, гишт ва мрамар ўйма нақшлари мавжуд. Бу мадрасага жозибали кўриниш беради.

Мирзо Улуғбекнинг буйруғи билан қурилган ушбу мадраса Шарқда биринчи ўқув муассасаси бўлиб, барча имкониятларга эга эди. Шунингдек, у Мирзо Улуғбек академияси сифатида дунёга машҳур эди. Мирзо Улуғбек ушбу академияда бир неча олимларга дарс берган. Машҳур Самарқанд расадхонаси уста ва шогирдлар учун коинот марказининг билим сирларига айланди. Мирзо Улуғбек ҳар бир олим билан шахсан суҳбатлашарди ва унинг ўқитувчилик фаолиятига оид билимлари мукамал эканлигига ишонч ҳосил қиларди. Бу ерда ўша даврнинг таниқли олимлари дарс берган. Мавлоно Муҳаммад Хавофий, Қозизода Румий, Ғиёсиддин Жамшид, Муиниддин Коший шулар жумласидандир.

Мадрасада ўқитиш уч босқичдан иборат эди. Биринчи – “андо” ёки “ки-

чик қадам” – дастлабки босқич. Иккинчи босқич – “авсат” ёки “ўртача”, учинчиси – “аъло”, яъни “юқори” босқич. Мадрасада ўқиш бепул ва вақфдан олинган даромад ҳисобига амалга ошириларди.

ОМОНҚЎТОН ҒОРИ

Самарқанд ҳудудида топилган энг қадимий ёдгорликлардан бири Омонқўтон ғори макони ҳисобланади. Омонқўтон ғори 1947 йилда археолог Д.Лев томонидан топилган. Омонқўтон ғори очилган пайтларда МДХ давлатлари ҳудудида 166 та палеолит даврига оид ёдгорликлар аниқланган эди. Самарқанд давлат университети неолитчилар гуруҳи палеолит даври ёдгорликларини ўрганишнинг анча тараққий қилган услубларини яратганлар. Ўша даврлардаёқ археологик тадқиқотларда геология, палеонтология ва этнография каби фанларнинг маълумотларидан фойдаланилган.

Макон Чақулқулён тоғларида денгиз сатҳидан тахминан 1300 м. баландликда, Самарқанд шаҳридан 45 км. жануброқда жойлашган. Тадқиқотлар 10 йил давом этган. Ғорнинг ётқизиклари унинг кириш қисмида концентрациялашган, маданий қатламларнинг қалинлиги 0,25 дан 1,5 м. гача бўлган. Бу ерда гулхан ва ўчоқлар қолдиқлари топилган. Топилмаларнинг жуда катта қисмини ҳайвонларнинг суяк қолдиқлари ташкил қилади.

Ғорнинг тош буюмлари коллекцияси 200 тадан ортиқроқ артефактлардан иборат. Д.Левнинг тош индустриясининг таҳлили асосида айтиш мумкинки, Омонқўтон Тешик-тошга нисбатан ҳам қадимироқ даврлар билан саналанган ва Тешик-тош унинг меросхўридир. Кейинчалик ушбу нуқтаи назарни рус археологи А.Окладников қўллаб-қувватлаган.

Ғор тўлиқ ўрганилган деб ҳисобланишига қарамаздан, унинг айрим жойларида қазилмаган майдончалар бўлақларини топиш мумкин ва ушбу майдонларда одам фаолияти изларини ҳамда ҳайвон суяклари қолдиқлари мавжуд. Ғордан топилган қазилма фауна катта қизиқиш уйғотади. Негаки, улар нафақат ибтидоий одамларнинг ов объектлари, балки қадимги палеоиклим ҳақида ҳам муҳим маълумотлар беради.

Ж.Жўраев,
Регистон ансамбли
гид-экскурсоводи,
Ипак Йўли халқаро туризм
университети магистранти.



Vaziyat

газетаси

Муассис:
Ўзбекистон
Республикаси
Фавқуллода
вазирлар
вазирлиги

Бош муҳаррир
Азамат СУЙОНОВ

Газета таҳририят
компьютерхонасида
саҳифаланди.

Газета ҳар ҳафтанинг
пайшанба куни чиқади.
Топшириш вақти – 15.00
Топширилди – 15.00

Навбатчи:
А.ҚОБИЛОВ

Таҳририятга юборилган
материаллар қайтарилмайди
ва изоҳ берилмайди.
Муаллифлар фикри таҳририят
нуқтаи назаридан фарқлиниши
мумкин.

Газетадан олинган материаллар
манбаси кўрсатилиши шарт.

Газета Ўзбекистон Матбуот ва
ахборот агентлигида 2007 йил
3 январда 0096-сон рақам
билан рўйхатга олинган
ISSN 2091-5292

Таҳририят манзили:
100084, Тошкент шаҳри,
Юнусобод тумани,
Ш.Рашидов кўчаси, 17-А уй.
Тел.: (71) 212-69-56
Телеграмм: (90) 016-87-67

Индекс:
якка обуначилар ва
ташқиротлар учун – 382

Газета “BUSINESS PRINT DESIGN”
босмахонасида босилди.
Манзил: Тошкент шаҳри,
Сўғалли ота кўчаси, 5-уй.
Буюртма №
Бичими: А3, ҳажми: 2,0 б.т.
Адади – 6000 нуска

Қалдирғоч

УЙИМИЗНИ СОҒИНДИМ, ОНА!

Зерикапман бу тош шаҳардан,
Ёдга олиб ҳар тонг саҳардан.
Кўзда ёш-ла, тўлиб паймона,
Уйимизни соғиндим, она!

Синглим шодон чопқиллаб юрган,
Жаннат ҳиди уфуриб турган,
Ўша қалдирғочлар ин қурган –
Уйимизни соғиндим, она!

Купиб турар самимий кўзлар,
Манфаатсиз айтилар сўзлар,

Беминнатдир бунда нон-тузлар...
Уйимизни соғиндим, она!

Ёлғонлардан йироқда бўлган,
Севинч, қувонч, шодликка тўлган.
Тафти иссиқ, мўъжаз кошона –
Уйимизни соғиндим, она!

Севинч ЭШҚУВВАТОВА,
Алишер Навоий номидаги
Тошкент давлат ўзбек тили ва
адабиёти университети талабаси.

